

## ABDURAUUF FITRATNING “YURT QAYG‘USI” TURKUMIDAGI SHE‘RLARIDA TURKISTON VA OVRUPA QIYOSI

**Jovliyev Azamat Shamamatovich**

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik

yo‘nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: [azamatjovliyev@gmail.com](mailto:azamatjovliyev@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Yurt qayg‘usi” turkumidagi mansuralri orqali Turkiston ahlining ozodlik uchun undovlari hamda Sharq va Yevropa muqoyasasi keyin yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ozodlik, jaholat, jadid, yangi usul, Turkiston, mansura, ittifoqchi.

### ABSTRACT

In this article, the appeals of the people of Turkistan for freedom and the comparison of the East and Europe are highlighted through the poems of Abdurauf Fitrat in the series “Yurt qayg‘usi”.

**Keywords:** freedom, ignorance, jadid, Turkistan, mansura, ally.

Bizga ma‘lumki, 1917-yilda Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” nomi bilan bir turkum she‘rlar e‘lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she‘rlar, Fitratning o‘zi aytmoqchi, mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilingani ma‘lum. Masalan, u “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 18-iyul sonida bosilgan bir she‘riga “She‘ri mansur” ya‘ni, nasriy she‘r deb ot qo‘ygan edi.

“Yurt qayg‘usi”ga kirgan she‘rlarining birinchisi “Hurriyat”ning 1917-yil 28-iyul, oxirgisi 29-dekabr sonida e‘lon qilingan. Shulardan oxirgisi aruz vaznida. Qolganlarida, tabiiyki, vazn yo‘q. She‘rlar ruknning sarlavhasidan ko‘rinib turganidek, yurt — Vatan qayg‘usiga bag‘ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi. Epchil millatlar darhol istiqlol rejalarini ko‘ra boshladilar. Begali Qosimovga ko‘ra, “Turkistonning taqdiri qanday bo‘ladi? Ayniqsa, so‘nggi asrlarda zalolatta botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga ko‘milgan, o‘z qiyofasini yo‘qota boshlab, o‘zga millat yetoviga tushgan Turkistonning. Fitratni qiynayotgan dard — shu!

Dunyoda yirik-yirik mustamlaka imperiyalari zailhol holga kelayotgan va boshqa bir qator o‘zlaridan kuchsiz bo‘lgan davlatlarni bo‘lib olish uchun qurollanayotgan, urishayotgan bir paytda mustamlaka holdagi Sharqning buyuk tarixi bor ammo ayni

paytda qullik holatiga tushib qolgan davlatlari o'z mustaqilliklari uchun harakat qilishi kerak edi. Ammo bu qulay vaziyat ham qo'ldan chiqarildi. Bir zamonlar Bilga xoqon, To'nyo'quq, Chingizxon, Amir Temur kabi buyuk sarkardalari Mashriqdan Mag'ribga qadar ulkan saltanat tuzgan sohibqironlari bo'lgan bu yurt g'aflatda qoldi. Sharqning buyuklik tamal toshini qo'ygan ajdodlari haqida, yuqorida aytilganidek, yozib o'tadi. Otillo atalmish turklar katta hududlarni o'z qo'l ostida ushlagan xun qabilasining jasur sarkardasi Yevropaning quldorlik imperiyasini zir qaqshatganini eslatadi. O'sha davrning buyuk mamlakatlaridan birlari bo'lgan Angliya, Fransiya, Ispaniya elchilari Vizantiya poytaxti bo'lgan Konstantinopolni o'rab olib, butun Tevropaga tahdid solib turgan jasur turk podshosi Yildirim Boyaziddan qo'rqib Amir Temurdan panoh so'ragan. Temurning shu darajada jahonga ta'sir kuchi bilan o'sha davr dunyo siyosatining markazida bo'lganini eslatadi. Fitrat shunday yozadi:

“Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?”

Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning, Otilloarning shonli beshiklari! Qani u chiqdigi'ing yuksak o'rinlar? Qullik chuqurlariga nedan tushding?!

Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog'ini ko'klarga uchirg'an tog' g'avdali o'g'lonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir?”[1.32] Shoir uning “yuksak o'rinlar”dan “qullik chuqurlari”ga tushish sabablarini so'raydi. “Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalari”ni, “er tuprog'ini ko'klarga uchiraturg'on tog' g'avdali o'g'lonlari”ni qo'msaydi. Uning bu holi bilan kelisha olmaydi. Tomirlarida Temur, Bilga xoqon qoni oqayotgan millatdoshlarini nomus va sha'n himoyasiga chorlaydi. Shoir ta'biricha, Vatan uchun, millat uchun uyg'onish vaqti ekanligini aytadi. Aks holda, kech bo'lishi tayinligini hayqiradi. Koshki edi! Kimdir eshitsa! Yo'q! Aslo, hali yurtning sher yurakli o'g'lonlari o'lmagan. Sen kuchsiz emassan, yer yuzida 80 million bolang bor. Bularning tomirida chingizlarning, temurlarning qoni oqmoqda. Ajdodlarning kuchlari sening kuchindir, deya yurt farzandlarini uyg'onishga chorlaydi:

“...Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi? Yo'q... yo'q... Tangri haqqi yo'q!.. Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun yer yuzida sakson milyo'n bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon chingizlarning, temurlarning qonidir. Bularning kuchlari sening kuchingdir!”[1:32]

Professor Hamidulla Boltaboyevning yozishicha, Fitrat boshqa bir sochmasida “kimsasizlik yukindan og'irlangan tanda zolimona urug'langan qamchilarning yarasi bor” deb yozarkan, “bosh ayoqlari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botg'an, baqirurg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmag'an” vatan xayolini mungli xotin qiyofasida tasavvur etib, “zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar? Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men butun borlig'im bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi...” deya

kurashga yeng shimarganda, uning atrofiga Buxoro jadidlarining katta bir guruhi to'planib ulgiran edi.[2.54] Bu yurtning aziz jadid farzandlarining nafratlari yo'nalishini aniq sezgan mustabitlar bu katta kuchdan o'z amirini yo'q qilish maqsadida foydalanadilar. Shuning uchun ham shoir: "O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga", degan so'zlarni shior qilib olgan yosh buxorolilar harakati 1918-yilning boshlarida Turkistonga o'lkani boshqarish uchun kelgan mustamlakachi Kolesov va uning maslakdoshlari "qo'llab-quvvatlashi" bilan muvaffaqiyatsiz tugadi. Yosh buxoroliklar amirlik islohatiga ham, mamlakatdagi diniy-dunyoviy islohatlarga ham erisha olmadi. Balki bu yosh jamiyatning qo'li bilan amirlik ag'darildi. H.Boltaboyevning yozishicha, muallifning "Yurt qayg'usi" she'ridagi ozodlikka bo'lgan qarash, mustabitlikka bo'lgan nafrat "Hurriyat" gazetasida quyidagicha ifodalanadi: "1917-yilning bug'doy pishig'ida kechgan qirg'inbarot janglardan Fitrat asarlariga tomgan, "Hurriyat"ning sarg'aygan varaqlariga singan o'sha qonlarning dog'larini aniqroq ilg'ash qiyin emas: "Ko'rdim, kezdin, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir..."", deya nadomat qiladi. Aslida ham o'sha davrda Turkistondek boshqa bir baxtsiz davlat kam edi. Bu baxtsizlik sharmandali holat edi. Har tomondan mamlakatni himoya qilishga qodir xalqqa ega, iqtisodiy tomondan g'arb davlatlariga teng kela oladigan darajada moddiy manbalarga ega bo'la turib, yurt egalari mamlakatning islohatiga qo'l urmaydi. Adibning yozishicha, "Butun yolg'izgina otlarini tarixda qo'yub ketgan el-uluslarning ezilib ketdiklariga sabab shul ayriliq, shul ittihodsizliqdir... Biz turkistonlilardagi bu ittihodsizliqdan ko'proq foyda ko'rgan, kattaroq osig'langan eski Rusiya hukumati edi".[1:33] Adib turkistonlik amaldorlarning oddiy narsalarga ham maydakashlik qilib, o'zaro bahsga, munozaraga berilishidan shikoyat qiladi. Birlilik, ittifoq qilish o'rniga ayirmakashlik holatlaridan faqatgina tashki kuchlar foyda ko'rishini ta'kidlaydi. "Qulluqlar ulug' tangrimizgakim, o'lmay, shu zolim hukumatning yiqildig'ini ko'rdik... Rusiyaning eski hukumati bilan birgalashib, oramizda nifoq va ayriliq qo'rg'onlarining dahi yiqilib ketmagan kerak edi, lekin bu qo'rg'onlar holo yiqilmadi, holo eski chidamini saqlab turibdi". [1:33] Fitrat bu o'rinda "yangi hukumatning saodat va'dalarindan foydalanurg'a" da'vat etsa-da, bu yangi sho'rolar hukumati eski nifoqlarni kamaytirish u yoqda tursin, bil'aks ularni kuchaytirib, millat ichidagi nizolarni o'zining asosiy taktik quroliga aylantirib olgan edi. Shuning uchun Fitrat demokratik davlat qurulishining asosi deb uqtirilayotgan shahr dumasiga bo'ladigan saylovlardan millatning foydasiga ish ko'rishlik zarur degan xulosaga keladi. Fitrat yurt farzandlari bo'lmish musulmon aholi vakillaridan iborat turkistonlik ijtimoiy-siyosiy birlashmalar yakdilikda bo'lishini targ'ib qilgan maqolalar chiqaradi. "Musulmonlar, g'ofil qolmang", "Birinchi choramiz", "Sho'royi islomning xatosi" kabi maqolalarida ham dumada ko'proq ovoz olib, demakki, yerli

aholi haq-huquqlarini hal qiluvchilar ro'yxatiga g'arazli niyatlarda yozilishiga intilayotganlarning nayranglaridan ogoh bo'lishga o'z millatdoshlarini chaqiradi va bu yo'lda bir millatchi o'ris fuqarosiga ittifoq bo'lishga rozilik bildirgan "Sho'royi islom" jamiyatining xatosini ko'rib, ajabsinadi: "Ajab, Sho'ro jamiyati ("Sho'royi islom" nechun tushunmaydi?.. Sho'ro bu masalani tushunmagan bo'lsa, millatning o'zi tushunsin va ortuq qaysi nomer ro'yxatga tovush bermak kerak edigini tayin etsun".[2:194] Fitratning kuyib-pishganicha bor. Chunki o'sha davrda rusiya o'lkasida bo'lgani kabi Turkistonda ham aholi vakillaridan dumaga saylov uchun vakillar saylanadi va bu vakillar, tabiiyki, xalq manfaati uchun foydali va manfaatli qarorlar qabul qiladi. Shuning uchun ham mahalliy dumaga ko'proq yerli xalqdan kishilar saylanishini yoqlab chiqadi. Mavjud partiya yoki ittifoqlar bir-biri bilan nizoga bormasdan, iloji boricha yerli xalq vakillarining foydsi uchun o'z uyushmasi foydasidan kechib bo'lsa ham harakat qilishlarini aytadi.

"Bir o'zbek yigitining tilidan" mansurasida, Begali Qosimov qarashicha, "Vatan bosh-oyog'i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko'ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol sifatida ifodalanadi. Bu timsol, bu xayol "o'zbek yigiti"ni tushida ham, o'ngida ham ta'qib etadi. O'zbek yigiti "g'amli ona" — "muqaddas Turon" xayoli bilan muroqabaga kirishadi."[3:14] O'zbek yigiti uchun o'lim Vatani bilan ayrimoqdir. Uning uchun hayot Vatani uchun o'lmoqdir. O'lganda ham qanday o'lim, uning umirining nihoyasi Vatani uchun ozodligi, erkinlikda davom etishidir. Yigitning xayolini yurt ozodligi maqsadlari tamom egallagan, shu sababdan uning Turoni mungli, erki toptalgan ayol siyratida xayolidan ketmaydi. U bu vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini axtaradi. G'arblik olbosti uni shu ko'ygami soldi? Erkin toptadi. Zolim mustabitlik uni qarovsiz bildimi? Lekin u xayolida ayolga qarata: Mana menman sen uchun o'lmoqqa rozi, mana menman sen uchun ko'makka shayman deya xitob qiladi: "...Turonim, sendan ayrilmoq — mening uchun o'limim. Sening uchun o'lmoq — mening tirikligimdir. ... Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men, butun borlig'im bilan senga ko'mak qilurg'a hozir. Mana men chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... ". [1:33] Undan ayrilmoqni o'zi uchun o'lim, uning uchun o'lmoqni esa tiriklik hisoblaydi. Uni qutqarmoqqa ont ichadi. She'r shunday yakunlanadi:

"Ustimga insonlar emas, shaytonlar qo'shuni kelsa,  
Oyog'imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa,  
yana sen sari ketarman...  
Men sening uchun tirildim,  
Sening uchun yasharman,  
Sening uchun o'lurman, ey turklikning muqaddas o'chog'i!

O‘lim, sening o‘limingni istaganlarga!

Nafrat, seni ko‘mgani kelganlarga! [1:33]

Shoirning “Temur oldinda” degan mansurasida yozishicha, bir turkiy farzandi o‘laroq buyuk sohibqiron bobosi oldiga dunyodan, tuzumlari teskari aylana boshlagan taqdir sinovlaridan, yurt o‘tmishida buqadar hech ko‘rilmagan balolar va hodisotlardan arz qilgandek, shikoyat qilgandek bo‘ladi. Eryigitning bag‘ri yoniq, yuzi qora, ko‘ngli siniq, bo‘yni yuz qarolikdan bukuk holda. Sul-tonining ziyoratiga brogan. Ezilgan boshi, qisilgan vijdoni, kuygan qoni, o‘rtangan joni uchun bobosi sag‘anasidan davo izlab kelgan. Yuz yillardan beri o‘z bag‘ridan yetishib chiqqan farzandlari jaf-o ko‘rib, har kun, har tun g‘am chekib kelgan, ko‘zlaridan qon bo‘lib to‘kilgan yoshlarini sohibqironining etaklariga artgani kelgan. Yuz yillardan beri tun zulmati ichida qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun ulug‘ ajdodining qabr tubrog‘idan surma olish uchun kelgan. Bu bo‘lib turgan hodislarni ko‘rgan, oyoqlari ostida insonlarning nomuslari toptalganni ko‘rib, yurt farzandining qoni qaynaydi, musulmonlik oriyati toshadi, xuddiki Jahannam olovlari sachragandek. Ammo o‘zining zamon oldida, adolatsiz taqdir oldidagi kuchsizligini ko‘rib, xalqining tushib turgan holatini aytish uchun keladi: “Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim, siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyoratingga keldim, sul-tonim!

Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim!” [1:33] Fitratning obrazli ta‘biricha, yurt farzandi ona zaminida bo‘lib turgan ko‘rguliklar haqida Amir Temurga shikoyatda davom etadi: ulug‘ xoqonim! Turklik shahrafi talandi. Turkiylar uchun tuzilgan davlat yo‘qotildi, turkiylar oyog‘i ostiga bo‘y sundirilgan hududlar shunchaki osonlikcha dushmanlar qo‘liga o‘tdi. Dunyoga ulug‘vor, davlatchilik nomini ko‘z-ko‘z qilgan millat nomusi, e‘tibori, iymoni, vijdoni qayerdagi bir mayda davlat bo‘lib yurgan millatlar, davlatlar zulmi ostiga tushib qoldi. Turkning bilimi, ongi, ziyrakligi jaholatga o‘lja bo‘lib ketdi. Xuddi mana shu yerda Fitratning zamondoshlariga qarata aytgan gapini ko‘rish mumkin: “Turkning bilgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘ljasig‘a ketdi.” [1:34], deya xitob qiladi. Bir paytlar dunyo ilm-fan beshigini, harbiy-siyosiy holatlarini boshqarib turgan bu turkiy millat, butun bir sharq millati endigi tushgan holidanxitob qiladi. Hozir uyg‘onmasa keyin kech bo‘lishi, keyin nafaqat o‘z joni, vijdoni oldida, balki kelajak avlod oldida tuzatib bo‘lmas hiyonatga qo‘l urishidan ogoh qilgandek bo‘ladi. Bir zamonlar sening qiliching bilan dunyo egasi bo‘lgan turkiylar tinch bir yotadigan joy topolmay qoldi. Sening qudrating bilan jahonga hukmron millat bo‘lgan turk pushaymonli vaziyatlar domiga tushdi. Shu yerda muallif Temurga qarata: “Xoqonim! Turklikka xiyonat qilg‘anlar turk bo‘lsalar ham qonlarini oqizmoq sening muqaddas odatingdir, yotma, tur! Sening omonatingg‘a xiyonat qilg‘anlarni ez, ur, o‘ldur!” [1:34] Darhaqiqat, Yuragida yurt sevgisi, onasiga bo‘lgan

mehr kuchi bo'lgan har bir er yigit doim atrofida bo'layotgan o'zgarishlar, yurt uchun tashqi va ichki xavflardan ogoh bo'lib turishi darkor. Shoir mansurasidagi o'g'lon uyatda. Ulug' sohibqiron bobosi sag'anasi oldida turibdi.

Fitrat sharqona madaniyatni yuksaltirish muddaosidan chekinmadi. 1918-1919-yillarda "Chig'atoy gurungi" faoliyatini yo'lga qo'ydi. Tashkilot, professor Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda, "Yo'nalishiga ko'ra islohotchilikni ko'zda tutar edi. Fitrat madaniyatimiz taraqqiyotining bir ovozdin tan olingan eng yuksak cho'qqisi Navoiy davrini ko'p jihatdan ibrat qilib oldi. "Jamiyat"ini ham hozirgi o'zbek xalqining XV asrdagi nomi bilan atadi".[4.2] Tashkilot til va imlodan adabiyot masalalarigacha, tarixni o'rganish va anglashdan maktab-maorif sohalarini isloh etishgacha bo'lgan millat hayotida favqulodda muhim ahamiyatga ega muammolar bilan shug'ullandi.

Xulosa qilib aytganda Abdurauf Fitrat "Yurt qayg'usi"nomli she'rlar to'plamida qalbidagi bor hasrat-nadomatlarini qog'oz orqali millatiga bildiradi. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning ijodiy-ilmiy ishlari ham, amaliy faoliyati ham mustahkam taraqqiyot ildizlariga ega bo'lsa-da, sharoit taqozosi bilan tanazzulga yuz tutgan, natijada G'arbdan ortda qolishga mahkum etilgan qadim Sharq madaniyatini yangi zamon sharoitida yanada yuksak darajaga ko'tarish, bu orqali Vatan va millat taraqqiysini ta'minlash maqsadlariga xizmat qildi. Ulug' mutafakkirning bu boradagi qizg'in faoliyatini yanada kengroq miqyoslarda o'rganish, zarur saboqlar olish bugungi davr uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurauf Fitrat. (2000). Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent. Ma'naviyat.
2. Abdurauf Fitrat. (2000). Tanlangan asarlar. III jild. Toshkent. Ma'naviyat.
3. Boltaboyev.H. (2007). Fitrat va jadidchilik ilmiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nazriyoti.
4. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) elektron kutubxonasi.